

Toshkent shahridagi Turin Politeknika Universiteti bitiruvchisi PhD unvoniga ega bo'ldi.

Toshkent shahridagi Turin Politeknika Universiteti tadqiqotchisi [Jalolliddin Yusupov](#) Italiyaning yetakchi muhandis olimlaridan tashkil topgan ixtisoslashgan kengashda o'z dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi va Kompyuter muhandisligi bo'yicha **PhD ilmiy darajasiga loyiq deb topildi.**

Tadqiqotchining dissertatsiyasi nusxalari **Milan va Florensiya** shaharlaridagi ilmiy kutubxonalariga joylashtirildi.

Jalolliddin Yusupov 2013-yili Toshkent shahridagi Turin Politeknika Universiteti tomonidan Italiyaning **Politecnico di Torino** universitetiga yuborilgan edi. Uning ilmiy izlanishlari italiyalik olimlarda qiziqish uyg'otganligi sababli, uning PhD dissertatsiyasi uchun **Italiya davlat granti** ajratilgan edi.

Imzolangan kelishuv asosida dissertatsiyaga Politecnico di Torino (Italiya) universitetidan professor Rikkardo Sisto, Eurecom (Fransiya) institutidan Adlen Ksentini ilmiy rahbar sifatida tayinlanishgan.

Hozirda, Jalolliddin Yusupov Toshkent shahridagi Turin Politeknika Universitetida dotsent lavozimida dars beradi va shu bilan birga, o'quv bo'limi boshlig'i vazifasini bajaradi.

Jalolliddinning ilmiy tadqiqot yo'nalishi dasturiy muhandislik bo'lib, u **"Avtomatlashtirilgan tarmoq orkestrida xavfsizlik siyosatining rasmiy kafolati (NFV / SDN)"** dolzarb mavzusida salmoqli ilmiy yangiliklar qildi va impakt-faktori tegishli darajada yuqori va ro'yxat bo'yicha xalqaro **"Scopus"** ma'lumotlar bazasida indekslangan ilmiy jurnal va

konferensiyalarda [10 dan ortiq maqolalari](#) chop etildi. 3 yil davomida Jalolliddin, **Turin IEEE COMPSAC 2017** va **Paris IEEE CSCN 2018** nufuzli xalqaro konferensiyalarning tashkiliy va dasturiy qo'mitalarida ishtirok etdi.

1 yil mobaynida, to hozirgi kungacha Jalolliddin Yevropa Ittifoqi tomonidan moliyalashtiriladigan (3 mln euro) **“Horizon 2020”**ga aloqador **ASTRID** (GA No 786922) loyihasida faol ishtirok etib kelmoqda.

Yosh tadqiqotchining hozirda davom ettirayotgan izlanishlari, asosan, rasmiy verifikatsiya (formal verification), rasmiy modellashtirish, kompyuter tarmoqlari, tarmoq protokollari, IoT, taqsimlangan dasturlash, virtual tarmoqni shakllantirish, NFV, SDN, tarmoqni avtomatlashtirish, tarmoqning dasturlashtirilishi va tarmoq xavfsizligini o'z ichiga oladi.